



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Asosida Foyda Solig'ini Hisoblash

**Eshniyazova Y.Y**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Biznes va boshqaruv” kafedrası  
dotsenti v.b, PhD

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarida “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” - 12-sonli BHXS (IAS) 12 “Foyda soliqlari” standarti asosida foyda solig'ini hisoblash jarayonini to'g'ri tashkil etish, soliq solinadigan foydani belgilashda uchraydigan metodik xatoliklarni bartaraf etish, shuningdek, amaliyotda uchraydigan xatolarni bartaraf etish hamda soliq hisobotini to'g'ri yuritish tartibi yoritilgan va misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya foydasi, soliq foydasi, doimiy farqlar, vaqtinchalik farqlar, kechiktirilgan soliq aktivi, kechiktirilgan soliq majburiyati, soliq oqibatları.

### KIRISH

Mamlakatimizda moliyaviy hisob tizimiga xalqaro standartlarni keng joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-setabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-282-son qarori qabul qilindi[1]. Ushbu qarorning maqsadi — O'zbekistonda moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchligini oshirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish, buxgalteriya va audit tizimini takomillashtirish hamda malakali kadrlar tayyorlash ko'zda tutiladi.

Asosiy qism. Buxgalteriya standartlarida, aktiv yoki majburiyatning tan olinishi tashkilot tomonidan ushbu aktiv yoki majburiyatning balans qiymatini qoplanishi yoki so'ndirilishini nazarda tutadi. Agar ushbu balans qiymatining qoplanishi yoki so'ndirilishi kelgusi soliq to'lovlari summasini bunday qoplash yoki so'ndirishning soliq oqibatları bo'lmagan taqdirda aniqlanadigan summasidan ko'proq (kamroq) bo'lishi ehtimoli mavjud bo'lsa, unda muayyan chegaralangan

istisno holatlardan tashqari, tashkilotning hisob tizimida kechiktirilgan soliq majburiyati (kechiktirilgan soliq aktiv) tan olinishi talab etiladi.

MHXS bo'yicha foyda solig'i hisob-kitobi joriy soliq majburiyatlarini hisoblash; kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari; vaqtinchalik farqlarni aniqlash va o'lash; soliq xarajatlarining moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibiga asoslanadi.

Foyda solig'ini hisoblash bo'yicha amaliy hisob-kitoblar O'zbekiston qonunchiligi talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi[2], O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida hisoblanadi[3].

Buxgalteriya foydasi davr uchun foyda solig'i xarajati chegirib tashlanishidan oldingi foyda yoki zarardir. Bu MHXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotda aks ettirilgan foyda bo'lib, u tashkilotning barcha daromadlaridan barcha xarajatlarini (foyda solig'idan tashqari) ayirish asosida hisoblanadi.

Soliq solinadigan foyda (soliq zarari) – bu soliq organlari tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlangan(aniqlanadigan) va natijada foyda soliqlari to'lanadigan (qoplanadigan) davr uchun foyda (zarar) hisoblanadi. Soliq solinadigan foyda – Soliq Kodeksining qoidalariga muvofiq hisoblanadi. Aynan shu foydadan foyda solig'i to'lanadi.

Buxgalteriya foydasi va soliq solinadigan foyda o'rtasidagi tafovut doimiy farqlar va vaqtinchalik farqlar sifatida tasniflanadi. Doimiy farqlar buxgalteriya foydasiga kiritilgan, lekin soliq hisobida qabul qilinmaydigan daromad yoki xarajatlardir. Vaqtinchalik farqlar esa moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan aktivning yoki majburiyatning balans qiymati va uning soliq bazasi o'rtasidagi farqlardir.

Soliq solinadigan vaqtinchalik farqlar bo'yicha kelgusi davrlarda to'lanadigan foyda soliqlari summasi kechiktirilgan soliq majburiyati (KSM) hisoblanadi. Chegiriladigan vaqtinchalik farqlar hamda kelgusi davrlarga o'tkazilgan foydalanilmagan soliq zararlar va imtiyozlari bo'yicha foyda soliqlarining kelgusi davrlarda qoplanadigan summasi kechiktirilgan soliq aktivlari (KSA) sifatida tan olinadi.

MHXS bo'yicha foyda solig'ini hisoblash bosqichlari:

1-bosqich: Buxgalteriya foydasini aniqlash (MHXS asosida)

2-bosqich: Doimiy farqlarni tuzatish

3-bosqich: Vaqtinchalik farqlarni aniqlash

4-bosqich: Joriy foyda solig'i summasini hisoblash

Joriy soliq = Soliq solinadigan foyda  $\times$  Soliq stavkasi

5-bosqich: Kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini hisoblash

Kechiktirilgan soliq = Vaqtinchalik farq  $\times$  Soliq stavkasi

6-bosqich: Soliq xarajatlarini moliyaviy hisobotda aks ettirish

Amaliy misollar: Misol 1. Doimiy farqlar

Korxonada MHXS asosida 1 000 000 ming so'm foyda ko'rsatdi. Soliqda tan olinmaydigan xarajatlari: 50 000 so'm (jarima).

Soliq solinadigan foyda = 1 000 000 + 50 000 = 1 050 000

Misol 2. Vaqtinchalik farqlar va kechiktirilgan soliq

Asosiy vosita amortizatsiyasi: MHXS bo'yicha: 100 000 so'm, soliq hisobida: 150 000 so'm. Vaqtinchalik farq = 50 000 so'm (chegiriladigan)

Soliq stavkasi 15%: Kechiktirilgan soliq aktiv = 50 000 × 15% = 7 500 so‘m

Misol 3. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot nuqtayi nazaridan yondashuvni qo‘llab, kechiktirilgan soliqlarni hisoblash.

Korxonada o‘z faoliyatida foydali xizmat muddati 3 yilni tashkil etgan yuqori texnologik uskunadan foydalanadi. Soliq hisobi maqsadlarida ushbu uskunaga nisbatan tezlashtirilgan amortizatsiya usullarini qo‘llashga ruxsat berilgan. Uskunaning boshlang‘ich qiymati - 600 mln so‘m. Soliq hisobi maqsadlaridagi amortizatsiya xarajatlari birinchi, ikkinchi va uchinchi yillar uchun uskuna qiymatining mos ravishda 50, 30 i 20% miqdorida tan olinadi. Buxgalteriya hisobi maqsadlarida korxonada to‘g‘ri chiziqli amortizatsiya usulini qo‘llaydi.

Korxonaning tushumi yiliga 900 mln so‘mni tashkil etadi, operatsion xarajatlari esa (amortizatsiya hisobga olinmagan holda) 400 mln so‘mga teng. Uch yillik muddat davomida tushum va xarajatlar o‘zgaragan. Solig‘i stavkasi 15% ni tashkil etadi.

**Javob.** 3 yil uchun foyda va zararlar hisoboti va foyda solig‘i hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar, mln so‘mda	1-yil	2-yil	3-yil	jami
Tushum	900	900	900	2700
Operatsion xarajatlar	(400)	(400)	(400)	(1200)
Soliq hisobi amortizatsiyasi	(300)	(180)	(120)	(600)
Buxgalteriya hisobi amortizatsiyasi (600 mln so‘m / 3 yil)	(200)	(200)	(200)	(600)
Vaqtinchalik farq	100	(20)	(80)	-
Soliqqa tortilgungacha foyda(buxgalteriya foydasi)	300	300	300	900
Soliqqa tortiladigan foyda(soliq foydasi)	200	320	380	900
<b>Foyda solig‘i, shu jumladan:</b>	<b>(45)</b>	<b>(45)</b>	<b>(45)</b>	<b>(135)</b>
- joriy soliq summasi	(30)	(48)	(57)	(135)
- kechiktirilgan soliq summasi	(15)	3	12	-
Sof foyda (soliqqa tortilganidan so‘ng)	270	252	243	765

**Xulosa:** Uch yillik davrni yaxlit olganda soliq hisobi va buxgalteriya hisobi o‘rtasida tavofutlar mavjud emas. Soliq hisobi va buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi tavofutlar xarajatlarni tan olish davrlari turlicha ekanligi bilan bog‘liq. Agar soliq qoidalariga ko‘ra hisobot davrida soliqqa tortish maqsadlarida inobatga olinadigan xarajatlar oshirilgan (va, buning oqibatida hisoblanadigan soliq summasi kamaytirilgan) bo‘lsa, soliq bo‘yicha qo‘shimcha majburiyatni tan olish lozim, chunki soliq summasi keyinroq bo‘lsa-da, baribir to‘lash kerak bo‘ladi.

#### References:

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-setabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-282-son qarori.
- [2] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

- [3] O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.